



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 16 - may

138-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 299-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko'maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 299-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-sonli Farmoni ijrosi haqida" 2023-yil 11-maydagi 299-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoniga muvofiq:

2023-yil 1-maydan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budjetidan to'liq qoplab berilishi belgilanganligi, bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab berilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yangihayot tumani hokimining "Toshkent shahar hokimining 2021-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi "Ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan

ijtimoiy soliq summasini davlat budjetidan to'liq qoplab berish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 460-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 69-14-0-Q/21-sonli qarori ijrosi to'g'risida" 2021 yil 20 avgustdagi 58-14-220-Q/21-sonli qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

4. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Hakimova), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (I.Jodiqov) ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-sonli Farmoni maqsadi va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritilishi tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklansin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**